



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 315 sahifa.

2025-yil dekabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI.....	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод ўгли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	
TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	203
To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Mirzayev Mirza Abdullayevich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОТОКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	208
Мисс София Ёдмыанг, Рахматова Наргизахон Аъзамхоновна	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	214
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	



ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СБЕРЕЖЕНИЯМИ И ИНВЕСТИЦИЯМИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕЙСЯ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	220
Абдумажидов Шохжохон Шухратович, Нозимов Эльдор Анварович	
ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ “ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ” В БАНКОВСКУЮ СФЕРУ	226
Тохинова Азиза Олимжоновна, Ишонкулова Феруза Асатовна	
MOLIYAVIY HISOBOTLAR ISHONCHLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOB MEKANIZMLARINING AHAMIYATI	231
Jo'rayeva Risolat Shuxrat qizi, Mardonov Shaxriyor Xolmirzo o'g'li	
РАЗРАБОТКА ДОЛГОСРОЧНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА ОСНОВЕ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	235
Юлдошев Бобур Бахромович, Маратова Гульшад Женгисовна, Саъдий Шукрилло Асатилло угли	
IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI HISOB	246
Oltmishov Doniyor, Ermaxammadov Ro'zimurod, Qo'shbekova Shahnoza, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT BO'YICHA HISOBLASHUV MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI	249
Uralova Gavhar, Ibodova Madina, Alimov Abbos, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
MOLIYAVIY SIYOSATNING MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGIGA TA'SIRI VLIYANIE FINANSOVOY POLITIKI NA STABIL'NOST' Natsional'noy ekonomiki THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY.....	253
Ismatilloev Muhridin Asliddin o'g'li, Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR BOZORIDA AI ASOSIDAGI INNOVATSIYALARNING INVESTITSION OQIMLARGA TA'SIRI	259
Istamov Bekzodbek Bahriddinovich, Buranova Jazira Ergash kizi	
EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	264
Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	269
Ismoilov Zikro Saidolimovich, G'ulamov Ilhom Akramovich	
KEY DETERMINANTS OF THE BUSINESS ENVIRONMENT AND DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: THEORETICAL AND EMPIRICAL ANALYSIS	275
Axmadjonov Kamronjon A'zamjon o'g'li, Dilafruz Maxkamova Nurmuhhammad qizi	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ В СИСТЕМЕ ФАКТОРОВ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	280
Давронов Дониёрбек Заррухович, Камилова Наргиза Абдукажоровна	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA BANK TIZIMI	285
Toshtemirova Feruza Nabijonovna, Murodullayev Muhammad Mavlon o'g'li, Ishonkulova Feruza Asatovna	
«ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕЛЬСКОМ И ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ТЕХНИКИ И ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ОБЪЕКТАХ СЕЛЬСКОГО И ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА».....	288
Ходжамуродова Севинч Нуриддиновна, Джораяева Лола Абдугабборовна	
EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE MOVEMENT OF GOODS IN MARKETING BASED ON FOREIGN EXPERIENCE	292
Karimova Shahzoda Voxid qizi, Egamberdiyev Shoxijahon Tolipovich, Aliqulov Shoxijahon Sherall o'g'li, Pardayev Sherzod Xolmurodovich	



COMPARATIVE MACROECONOMIC ANALYSIS OF INFLATION IN UZBEKISTAN AND THE UNITED STATES.....	298
Khayirbaeva Balzira Parakhat qizi, Sarsenbaev Bakhitjan Abdulgazievich	
SHOVOT TUMANI TURIZM SALOHİYATIDA JOYLASHTIRISH INFRATUZILMASINING O'RNI	305
Ollayorov Islombek Farhod o'g'li, Isakov Rasulbek Qo'chqarboy o'g'li	

UDK 338.48:640.41(575.172)

SHOVOT TUMANI TURIZM SALOHIYATIDA JOYLASHTIRISH INFRATUZILMASINING O'RNI

Ollayorov Islombek Farhod o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Isakov Rasulbek Qo'chqarboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Turizm va mehmondo'stlik kafedrası o'qituvchisi

E-mail: islomolloyorov58@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2745-9720

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Xorazm viloyatining Shovot tumani turizm salohiyatini rivojlantirishda joylashtirish infratuzilmasining — mehmonxonalar, mehmon uylari va oilaviy mehmonxonalarning — tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hududda tarixiy-madaniy, ziyorat hamda ijtimoiy-iqtisodiy resurslar yetarli darajada mavjud ekanligi aniqlanadi. Shu bilan birga, joylashtirish vositalari tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish zarurati tumanda turizm faoliyatini yanada rivojlantirish uchun muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Maqolada mavjud muammolar tizimli tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yusuf Hamadoniy, statistik tahlil, SWOT tahlil, mehmonxona, xostel, mehmon uylari, bronlashtirish.

Abstract: This scientific article analyzes the role of accommodation infrastructure—hotels, guest houses, and family-run accommodations—in enhancing the tourism potential of Shovot District in the Khorezm Region. The study confirms that the area possesses sufficient historical, cultural, pilgrimage, and socio-economic resources. At the same time, the development and diversification of accommodation facilities are identified as key factors for further strengthening tourism activities in the district. The article systematically examines existing challenges and proposes practical recommendations aimed at improving accommodation infrastructure and ensuring sustainable tourism development.

Key words: Yusuf Hamadani, statistical analysis, SWOT analysis, hotel, hostel, guest houses, booking.

Аннотация: В данной научной статье анализируется роль инфраструктуры размещения — гостиниц, гостевых домов и семейных отелей — в развитии туристического потенциала Шовотского района Хорезмской области. В ходе исследования установлено, что регион обладает значительным историко-культурным, паломническим и социально-экономическим потенциалом. Вместе с тем, совершенствование и расширение средств размещения рассматривается как важное условие активизации туристической деятельности в районе. В статье систематизированы существующие проблемы и разработаны научно обоснованные рекомендации по их решению.

Ключевые слова: Юсуф Хамадани, статистический анализ, SWOT-анализ, гостиница, хостел, гостевые дома, бронирование.

KIRISH

Hozirgi kunda Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining Samarqand, Buxoro va Toshkent viloyatlari qatorida yetakchi turistik markazlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Viloyatning turizm sohasidagi raqobatbardoshligi, avvalo, uning boy turistik resurslari hamda infratuzilma holati, xususan, joylashtirish vositalarining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Joylashtirish vositasi deganda turistlarning tunashi uchun doimiy yoki vaqtinchalik xizmat ko'rsatuvchi har qanday obyekt tushunilib, u turistik industriyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur soha turizmida band bo'lgan aholining qariyb 65 foizini qamrab oladi hamda



turizm faoliyatidan olinadigan daromadlarning taxminan 68 foizini shakllantiradi. Shu bois yangi joylashtirish obyektlarini barpo etish turistik yo'nalishlarning jozibadorligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Xorazm viloyatida asosiy turistik markaz sifatida Ichanqal'a majmuasi shakllangan bo'lib, joylashtirish infratuzilmasi asosan Xiva va viloyat markazi — Urganch shaharlarida nisbatan rivojlangan. Shu bilan birga, Shovot tumani kabi hududlarda ham turizmni rivojlantirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Jumladan, tumanda "Ulli Pir" nomi bilan mashhur bo'lgan Yusuf Hamadoniy ziyorat majmuasi, Miskin bobo va Vayangon bobo ziyorat maskanlari hamda Katqal'a tarixiy-arxeologik yodgorliklari joylashgan. Mazkur obyektlar hududning ziyorat va madaniy turizm salohiyatini oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq ichki va xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan zamonaviy mehmonxonalar va mehmon uylari tarmog'ini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur yo'nalishda tizimli islohotlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022–yil 28–sentabrdagi "2022–2026–yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 546–son qarori qabul qilindi [4]. Ushbu qarorning "Xorazm viloyati turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida"da belgilangan 9– va 10–bandlar Shovot tumanidagi "Beshmergan" qishlog'i hamda "Yusuf Hamadoniy" ziyoratgohi infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, mazkur rejalarda mahalliy infratuzilmani yaxshilash bilan bir qatorda 20 ta oilaviy mehmon uyini tashkil etish nazarda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlarning asosiy maqsadi hududga tashrif buyurayotgan ichki va xorijiy turistlar sonini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda Shovot tumani to'g'risida ijobiy turistik imijni shakllantirishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda joylashtirish vositalarining zamonaviy turizm rivojidagi ahamiyati, xorijiy va ichki sayyohlar oqimini destinatsiyalarga jalb etishdagi hissa hamda hudud to'g'risida ijobiy taassurot shakllantirishdagi roli keng ko'lamda tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar joylashtirish infratuzilmasining turizm tarmog'idagi strategik ahamiyatini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Xususan, xitoylik olim Xinyang (2024) o'z tadqiqotida [2] turistik obyektlarda joylashtirish vositalarining rivojlanish tendensiyalarini TF-IDF algoritmi, geografik konsentratsiya indeksi, standart og'ish ellipsi hamda eng yaqin qo'shni indeksi kabi zamonaviy statistik va fazoviy tahlil usullari asosida o'rgangan. Tadqiqot obyekti sifatida Xitoy Xalq Respublikasining Guilin shahri tanlab olingan bo'lib, 1980–2023–yillar oralig'ida turistik obyektlardagi joylashtirish vositalarining geografik konsentratsiya indeksi 20,19 dan 53,72 gacha oshgani aniqlangan. Shuningdek, mehmonxonalarda "xizmat" va "xona" tushunchalari o'rtasidagi nisbiy chastota farqi 4,35 foizni, mehmon uylarida esa 0,77 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur davrda hududga tashrif buyurgan turistlarning 70 foizdan ortig'i joylashtirish vositalaridan foydalanish tajribasini ijobiy baholagan. Ushbu natijalar turistik hududlarda joylashtirish vositalari tomonidan taklif etilayotgan xizmat va mahsulot turlarini kengaytirish, ekoturizm, diniy va ziyorat turizmi kabi yo'nalishlarga ixtisoslashgan mehmon uylari tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish turizmni barqaror rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, Vasilev E.S. va Guryeva E.V. (2020) o'z tadqiqotlarida [3] joylashtirish vositalarining turizm rivojlanishiga ta'sirini korrelyatsion tahlil usuli asosida o'rgangan. Olimlar Volgograd shahri misolida turistlarning qaysi turistik faoliyat turlariga (masalan, plyajda dam olish yoki tarixiy obidalariga ekskursiya) ko'proq murojaat qilayotganligini aniqlash orqali hududda qaysi turdagi joylashtirish vositalari rivojlanganini yoki rivojlantirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga harakat qilgan. Ushbu yondashuv joylashtirish infratuzilmasini hududiy turizm ixtisoslashuviga mos holda rejalashtirish imkonini beradi.

Xorijiy tajribalarda joylashtirish infratuzilmasiga alohida e'tibor qaratilishining asosiy sabablari sifatida uning nafaqat turizm sohasini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirishdagi roli, balki mahalliy aholini qo'shimcha bandlik bilan ta'minlash hamda hudud imijini ijobiy shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatiladi. Mahalliy tadqiqotlarda ham joylashtirish vositalarining ichki va xalqaro turizmdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Shu bilan birga, hududlarda joylashtirish obyektlarini tashkil etish shart-sharoitlari, ularning mahalliy aholi turmush darajasi va hudud imijiga ta'siri bo'yicha chuqur va kompleks tadqiqotlar olib borish istiqbollari mavjud.

Mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish, Shovot tumanidagi turistik resurslar hamda joylashtirish infratuzilmasining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv tumandagi mehmonxonalar va mehmon uylari faoliyatini yanada takomillashtirish, hudud turizm salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish hamda barqaror turizm modelini shakllantirishga xizmat qiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Xorazm viloyati Shovot tumanida turizm salohiyatining hozirgi holatini baholash, tumanga tashrif buyurayotgan turistlar oqimining ortishi sharoitida joylashtirish infratuzilmasida yuzaga kelayotgan masalalarni aniqlash hamda ularni samarali hal etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishish uchun Shovot tumanining turizm nuqtayi nazaridan muhim resurslari sifatida Yusuf Hamadoniy, Vayangon bobo va Miskin bobo ziyoratgohlari, shuningdek, Katqal'a hamda Tuproqqal'a tarixiy-arxeologik shaharlari tadqiqot obyektlari sifatida tanlab olindi. Ushbu obyektlarning har biri o'ziga xos tarixiy, madaniy va diniy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi islom olamida mashhur bo'lgan diniy allomalarning ustozlari, ya'ni "pir" sifatida e'tirof etilgan tarixiy shaxs qabri joylashgan maskan bo'lib, ichki va xorijiy ziyoratchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Vayangon bobo va Miskin bobo ziyoratgohlari ham mahalliy aholi orasida keng e'tirof etilgan muqaddas maskanlar hisoblanadi. Katqal'a va Tuproqqal'a esa Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining yirik tarixiy shaharlaridan biri sifatida arxeologik va ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy-arxeologik turizm yo'nalishiga qiziquvchi sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu usul so'nggi yillarda tumanga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimining o'sishi fonida joylashtirish infratuzilmasida yuz berayotgan miqdoriy va sifat o'zgarishlarni tahlil qilishga xizmat qildi. Statistik tahlil yordamida tanlangan obyektlar bo'yicha turistik oqim dinamikasi, mavjud joylashtirish vositalarining imkoniyatlari hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari aniqlandi. Olingan natijalar joylashtirish infratuzilmasining hududga kelayotgan turistlar oqimini qabul qilish darajasini baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanildi. Mazkur usul orqali Shovot tumanidagi joylashtirish infratuzilmasi ko'rsatkichlari Xorazm viloyatining boshqa tuman va shaharlaridagi mos ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Natijada hududda rivojlantirilishi zarur bo'lgan ustuvor yo'nalishlar aniqlanib, mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish yo'llari belgilandi.

Bundan tashqari, SWOT tahlil usuli yordamida Shovot tumanidagi joylashtirish infratuzilmasining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy tahdidlar kompleks ravishda baholandi. Ushbu tahlil hudud turizm salohiyatini oshirishda joylashtirish vositalarining strategik rolini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar majmuasi Shovot tumanining turizm salohiyatini aniqlash va joylashtirish infratuzilmasining mazkur jarayondagi ahamiyatini baholashda muhim ilmiy natijalarga erishish imkonini berdi. Kelgusida ushbu metodologik yondashuvni mahalliy infratuzilma va resurslarni hisobga olgan holda yanada takomillashtirish va kengaytirish Shovot tumanida turizm sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi kutiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025-yil 6-dekabrdagi hisobotiga ko'ra, yilning dastlabki 11 oyi yakunida ichki turizm bo'yicha "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturi doirasida aholining hududlarga 23,7 million marta tashrifi amalga oshirilgan. Ushbu ko'rsatkich reja bilan solishtirilganda 114,8 foizni tashkil etib, ichki turizm faolligining yuqori sur'atlarda o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Hisobotda, shuningdek, hududlarda 954 ta joylashtirish vositasi faoliyati yo'lga qo'yilgani, ularning umumiy soni 6 861 taga, o'rinlar soni esa 183,9 mingtaga yetgani qayd etilgan [5].

Xorazm viloyati mamlakatning yetakchi turistik hududlaridan biri bo'lganligi sababli joylashtirish vositalarining salmoqli qismi viloyat hissasiga to'g'ri keladi. 2024-yilda o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, viloyat hududida 100 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat yuritib, ularda 2 441 ta nomer (xona), 4 955 ta o'rin mavjud bo'lgan hamda 177,2 ming nafar shaxs joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan joylashtirish obyektlari soni 15 taga (17,6 foizga), nomerlar fondi 254 taga (11,6 foizga), o'rinlar soni 544 taga (12,3 foizga), joylashtirilgan shaxslar soni esa 36,4 ming kishiga (25,9 foizga) oshgani kuzatildi. Maxsus ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari soni viloyat bo'yicha 36 tani tashkil etib, shundan Shovot tumanida 2 tasi faoliyat yuritayotgani aniqlangan. Bundan tashqari, viloyatda 86 ta individual joylashtirish vositalari (mehmon uylari) mavjudligi qayd etildi [6].

Mazkur ko'rsatkichlar tahlili 2024-yilda Shovot tumanida ixtisoslashtirilgan joylashtirish obyektlarining mavjudligi turizmni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hududning boy turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish maqsadida mehmonxona, xostel va mehmon uylari tarmog'ini bosqichma-bosqich kengaytirish zarurati mavjudligi aniqlanadi. Statistik ma'lumotlar Yusuf Hamadoniy va Vayangon bobo ziyoratgohlariga yil davomida minglab ichki va xorijiy turistlar tashrif buyurishini, shuningdek, Katqal'a tarixiy shahriga ham chet ellik sayyohlar qiziqishi yuqori ekanini ko'rsatadi. Biroq zamonaviy joylashtirish vositalari yetarli darajada shakllanmaganligi sababli turistlarning katta qismi ushbu



obyektlarga bir kunlik tashrif bilan cheklanib, keyinchalik joylashtirish imkoniyatlari kengroq bo'lgan Urganch va Xiva shaharlariga qaytib ketayotgani aniqlangan. Ushbu holat Shovot tumanida joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirish orqali turistlarning hududda uzoqroq muddat qolishini ta'minlash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari Shovot tumanidagi turistik obyektlarning ichki va xorijiy sayyohlarni jalb etish salohiyati Urganch, Xiva va Bog'ot kabi hududlar bilan solishtirilganda sezilarli farqqa ega emasligini, biroq joylashtirish infratuzilmasi darajasi bo'yicha muayyan tafovutlar mavjudligini aniqladi. Urganch va Xiva shaharlarida jahon standartlariga mos ko'p o'rinli mehmonxonalar (masalan, "Farovon" va "Xorazm Palace") turistlarning katta qismini qabul qilayotgan bir paytda, Shovot tumanida kichik sig'imli (10–15 o'rinli) mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi. Bu holat tuman turizmini yanada rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mehmonxonalar, xostellar va oilaviy mehmon uylarining tuman turizmidagi o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq aniqlash maqsadida tadqiqotda SWOT tahlil usuli qo'llanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, tuman aholisining mehmondo'stligi, ziyorat, arxeologik, gastronomik va qishloq turizmi bo'yicha yuqori salohiyati joylashtirish infratuzilmasining kuchli tomonlari sifatida belgilandi. Rivojlanish imkoniyatlari doirasida esa zamonaviy talablar asosida mehmonxona xo'jaligini kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda turizm sohasida kadrlar salohiyatini mustahkamlash muhimligi ta'kidlandi.

So'nggi yillarda respublikada mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida 2019–yildan boshlab investorlar xarajatlarning bir qismini davlat byudjeti hisobidan qoplash mexanizmi joriy etilgan [7]. Mazkur mexanizmga ko'ra, moliyalashtirish miqdori har yili indeksatsiya qilinib, 3 yulduzli toifadagi mehmonxonalarda har bir xona uchun 40 million so'm, 4 yulduzli toifadagi mehmonxonalarda esa 65 million so'mni tashkil etadi. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ushbu qo'llab-quvvatlash choralari, shuningdek, Xivaga tashrif buyurayotgan turistlar oqimining bir qismini Shovot tumaniga yo'naltirish va hududni axborot-resurslari orqali targ'ib etish imkoniyatlari tuman joylashtirish infratuzilmasi uchun muhim rivojlanish imkoniyatlari sifatida baholandi. Shu bilan birga, mavsumiylik, transport va yo'l infratuzilmasini yanada takomillashtirish zarurati hamda hududlararo raqobat omillari istiqbolda kompleks yondashuvni talab etuvchi masalalar sifatida belgilandi.

Shovot tumanida turizmni rivojlantirishda muhim ko'makchi omillardan biri bo'lgan joylashtirish vositalari faoliyati hozirgi kunda ichki va xorijiy turistlar oqimini to'liq qabul qilish darajasiga yetmagan bo'lsa-da, so'nggi yillarda davlat rahbari tashabbusi bilan tuman turizmi va iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan qator farmon va qarorlarning qabul qilinishi ushbu yo'nalishda barqaror ijobiy o'zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Mazkur hujjatlar joylashtirish infratuzilmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish va mavjud salohiyatdan samarali foydalanish imkonini bermoqda.

Xususan, 2024–yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022–yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida tuzilgan "Shovot–Toshhovuz" chegaraoldi savdo zonasini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Ushbu hujjatga muvofiq, Shovot tumani hududida bojxona jihatidan erkin savdo zonasi tashkil etilishi belgilandi [8]. Mazkur zona doirasida mahalliy va xorijiy mehmonlar uchun o'zbek–turkman hamkorligida mehmonxonalar, restoranlar va kafelar qurilishi loyihalarida alohida ko'zda tutilgan. Bu esa hududga tashrif buyuruvchi ichki va xorijiy turistlar sonining oshishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Chegaraoldi savdo zonasining faoliyat boshlashi Shovot tumanida joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirishga qo'shimcha turtki berib, mavjud ehtiyojlarni qondira oladigan zamonaviy mehmonxonalar, xostellar va mehmon uylari tarmog'ini kengaytirishni talab etadi. Shu bilan birga, mazkur hududda barpo etiladigan joylashtirish obyektlari tumandagi mavjud infratuzilmani takomillashtirishda namunaviy asos bo'lib xizmat qilishi hamda kelgusida rejalashtirilayotgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, joylashtirish infratuzilmasi nafaqat turistlarni qabul qilish, balki hudud turizmini tizimli boshqarish va rejalashtirishda ham muhim axborot manbai hisoblanadi. Xususan, mehmonxonalarda joriy etilgan bronlashtirish tizimlari va "e-mehmon" dasturi orqali mahalliy hamda xorijiy mehmonlar sonini aniq hisobga olish, turistlar oqimining tarkibi va dinamikasini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu ma'lumotlar Shovot tumanining turizm salohiyatini baholash, istiqbolda turistlar oqimini oshirish bo'yicha strategik rejalar ishlab chiqish hamda hududni raqobatbardosh turistik destinatsiya sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari Shovot tumanida joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirish turizmning turli shakllarini kengaytirish, hududga tashrif buyurayotgan ichki va xorijiy sayyohlar oqimini oshirish hamda tuman turizm salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Joylashtirish vositalarining barpo etilishi va faoliyatining kengayishi nafaqat turistik infratuzilmani mustahkamlashga, balki mahalliy aholini qo'shimcha ish o'rinlari bilan ta'minlash orqali ularning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.



Shu bilan birga, joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, kadrlar salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish va hududdagi turistik infratuzilmaning boshqa turlari bilan bir qatorda joylashtirish tizimini kompleks rivojlantirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, mehmonxonalar va xostellar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning tarmog'ini kengaytirish uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish, shuningdek, faoliyatning dastlabki bir yili davomida soliq imtiyozlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, Shovot tumanida ziyorat, arxeologik va qishloq turizmi kabi mavzuli turizm yo'nalishlari bo'yicha oilaviy mehmon uylari tarmog'ini kengaytirish hamda ushbu faoliyat bilan shug'ullanish istagida bo'lgan oilalarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur.

Uchinchidan, mehmonxonalarda xizmatlar sifatini oshirish maqsadida ularning toifalariga (yulduzlar darajasiga) mos xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish va ushbu talablarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, turizm va mehmondo'stlik sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish uchun qisqa muddatli amaliy o'quv kurslari, treninglar va malaka oshirish dasturlarini muntazam tashkil etish lozim.

Beshinchidan, joylashtirish infratuzilmasida xalqaro onlayn bronlashtirish tizimlarini (masalan, Booking.com va shunga o'xshash platformalar) keng joriy etish hamda mehmonlar uchun xizmatlar sifati bo'yicha fikr-mulohazalar bildirish imkoniyatini yaratish hudud turizmining ochiqligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur takliflarning izchil amalga oshirilishi Shovot tumanida joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirish, turizm salohiyatidan samarali foydalanish va hududni raqobatbardosh turistik destinatsiya sifatida shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamatqulov X.M., Abduxamidov S.A., Xamitov M.X. Turizm infratuzilmasi. – Samarqand, 2020. – 40 b.
2. Xinyang. Turistik maskanlarda turistlar tajribasini yaxshilash maqsadida joylashtirish vositalarini rejalashtirish bo'yicha strategik tadqiqot // Uy-joy fanlari va ularning amaliy qo'llanilishiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – 10–21 b.
3. Vasiliev E.S., Guryeva E.V. Zamonaviy Rossiya sharoitida turizm ijtimoiy amaliyotlarining rivojlanishi (Volgograd viloyati misolida) // Sotsiologiya va ijtimoiy texnologiyalar jurnali. – Rossiya, 2023. – 122–131 b.
4. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti. – <https://stat.uz>
6. Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti. – <https://www.xorazmstat.uz>
7. Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent, 2020. – 102 b.
8. Frank.uz – O'zbekiston bo'yicha iqtisodiyot, moliya, biznes va davlat siyosati sohalariga oid yangiliklar va tahliliy materiallar taqdim etuvchi mustaqil internet-nashr. – <https://frank.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
